

## 2019-yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi


So'nggi yigirma yil mobaynida jahon iqtisodiyotining tarmoqlaridan biri sifatida xizmatlar sohasida jadal o'sish kuzatilmoqda. Bu ishlab chiqarishning murakkabligi, bozorni yangi mahsulotlar bilan to'yinganligi, innovatsion texnologiyalarning jadal o'sishiga bog'liqdir.

Shuningdek, xizmatlar sohasining jadal o'sishi yangi faoliyat turlari va investitsion imkoniyatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda kredit-moliyaviy, axborot, telekommunikatsiya, tibbiy, intellektual va ko'ngilochar xizmatlar bozorlari rivojlanmoqda.

2019-yil 1-mart holatiga ko'ra respublikamizda 227,1 mingta korxonalar va tashkilotlar xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatmoqda, bu faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida (344,1 ming birlik) 65,9 % ni tashkil etadi. Ularning o'sishi o'tgan yilga nisbatan 16,2 % ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2018-yil 1-mart holatida xizmatlar sohasida 195,4 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo sohasida - 33,0 %, yashash va ovqatlanish sohasida - 8,9 %, tashish va saqlash - 6,3 %, axborot va aloqa - 3,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,1 %, boshqa turlarda - 45,4 % korxonalar va tashkilotlar o'rin egallagan.

**2019-yil 1-mart holatiga korxonalar va tashkilotlarning  
umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotganlarning ulushi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2019-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibida eng yuqori ulushni savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi (35,8 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,3 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 6,1 % ga yetdi.

## 2019-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi 3,2 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash sohasida va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,0 % ni tashkil etdi.


**Ma'lumot uchun:** 2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 31,7 mingtaga ko'paydi.

Eng yuqori o'sish savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar va tashkilotlarda qayd etildi. U 26,1 % ni tashkil qildi, ularning soni 16,8 mingtaga ko'paydi. 2019-yil 1-mart holatiga ko'ra ushbu sohada yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 11,1 mingtaga yetdi.

Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sishi (21,0 %) kuzatilmoqda, ularning soni 3,7 mingtaga oshdi.

Sog'liqni saqlash sohasida va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishi (0,9 mingtaga), ularning o'sishiga (14,7 %) ta'sir ko'rsatdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5154,9 mlrd. so'mga oshib, 26102,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,7 % ni tashkil etdi.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida transport xizmatlari etakchi o'rinni egallaydi. Ularning ulushi 30,4 % ni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan hajmi 1473,2 mlrd. so'mga oshdi.

### 2019-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %




Bundan tashqari, eng katta ulush moliyaviy xizmatlar, savdo xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda, shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarda kuzatiladi.

**2019-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>26102,2</b>	<b>115,7</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1428,2	98,5
Moliyaviy xizmatlar	4386,0	157,5
Transport xizmatlari	7922,8	116,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3460,6	100,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	741,4	105,3
Savdo xizmatlari	6692,2	104,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	805,1	103,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	936,9	118,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	373,2	116,5
Ijara xizmatlari	542,4	104,2
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	440,4	103,1
Shaxsiy xizmatlar	662,7	103,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	395,8	131,4
Boshqa xizmatlar	775,1	103,8

Respublikamizda olib borilayotgan kredit siyosati bo'yicha islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 157,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (131,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (118,3 %), transport xizmatlari (116,7 %), sog'liqni saqlash sohasida (116,5 %) qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




**Ma'lumot uchun:** 2018-yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi 29,7 % ni, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik inovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar - 27,7 % ni, ta'lim sohasida - 17,2 % ni, sog'liqni saqlash sohasida - 10,5 % ni, transport xizmatlari – 15,7 % ni tashkil etgan.

Respublikamizning iqtisodiy rivojlanishida transport muhim rol o'ynaydi. Transport xizmatlari umumiy hajmining qariyb yarmi avtomobil transportida yuklar va yo'lovchilarni tashish xizmatlari hisobiga to'g'ri keladi.

Avtomobil transport turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning manevrlligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi. Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transportining ulushi 43,9 % ni tashkil etadi.

### 2019-yil yanvar-fevral oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %





2019-yil yanvar-fevral oylarida quvur yo'li orqali ko'rsatilgan transport xizmatlarining ulushi 25,3 % ni tashkil etdi. Transport xizmatlari umumiy hajmida temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar 13,9 % ni tashkil etdi.

Havo transporti orqali ko'rsatilgan yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmida 9,5 % ni tashkil etdi.

Yordamchi transport faoliyatining transport xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 7,4 % ga yetdi.

**Ma'lumot uchun:** Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 167 dunyo mamlakatlari orasida Logistika samaradorligi indeksi (LPI) bo'yicha O'zbekiston 117-o'rinni egalladi.

*Logistika mamlakat ichidagi va tashqarisida tovarlarning jismoniy harakatlanishini qo'llab-quvvatlovchi xizmat ko'rsatish tarmog'ini o'z ichiga oladi. Logistika samaradorligi indeksi (LPI) tovarlarni chegaralar bo'ylab qanday samarali harakatlanish nuqtai nazarida davlatlarni baholaydi.*

[\(https://lpi.worldbank.org/\)](https://lpi.worldbank.org/)

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


2019-yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari hajmi 6692,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 25,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 988,5 mlrd. so'mga oshdi.


Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-fevral oylarida uning ulushi 68,9 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %


#### Savdo xizmatlari - 100,0 %



Avtomobil va mototsikllar  
ulgurji va chakana savdosi va  
ularni ta'mirlash xizmatlarini  
qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari  
(avtomobillar va  
mototsikllar savdosidan  
tashqari)




Avtomobillar va  
mototsikllardan tashqari  
chakana savdo bo'yicha  
xizmatlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 24,1 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmida 7,0 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahri (2179,0 mlrd. so'm), Toshkent (606,7 mlrd. so'm), Farg'ona (521,6 mlrd. so'm), Samarqand (520,3 mlrd. so'm) va Andijon (442,8 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.


### 2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi



Savdo xizmatlari bo'yicha eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo viloyatida kuzatildi. Ushbu hududdagi savdo xizmatlari hajmi 108,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

2019-yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 4386,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 157,5 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning hajmi va o'sish sur'atlari



Moliyaviy xizmatlarning o'sish omillari sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmining o'sishi, jumladan, pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar hajmining o'sishi bilan izohlanadi.

Moliyaviy xizmatlarning yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (213,6 %), Jizzax (202,5 %), Surxondaryo (191,4 %), Namangan (187,7 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (193,7 %) qayd etildi.

Nisbatan past o'sish sur'ati Toshkent shahrida – 144,2 % qayd etildi.

**Ma'lumot uchun: Moody's Investors** xalqaro reyting agentligi O'zbekistonga uzoq muddatli "B1" darajali emitent reytingini berdi.

**Moody's Investors** – dunyo mamlakatlarini o'z to'lov qobiliyatiga muvofiq baholash bilan shug'ullanuvchi nufuzli reyting agentligi. **Standard & Poor's va Fitch Ratings** bilan bir qatorda, bu agentlik xalqaro reyting agentliklarining "yirik uchtalik" giga kiradi.

Mazkur agentlik ma'lumotlariga ko'ra, reyting bo'yicha prognoz barqaror. **Moody's** shuningdek, O'zbekistonning obligatsiyalar chiqarishini ham "B1" darajasida baholadi.

"Barqaror" prognozi agentlik ekspertlarining taxminlariga ko'ra, O'zbekiston yaqin va o'rta muddatli kelajakda xavflar balansini saqlab qolishini aks ettiradi.

<https://www.uzdaily.uz>


Ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekistondagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, avvalo, inson ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'naviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

2019-yil yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 936,9 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 18,3 % ni tashkil etdi.

Hudular orasida Toshkent shahri etakchi o'rinni egallaydi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarda uning ulushi 44,1 % ni tashkil etdi. Buning sababi, ta'lim muassasalarining katta qismi bu erda joylashganligidir. Toshkent shahrida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 413,0 mlrd. so'mga yetdi.


### 2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmining taqqoslanishi



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'atlari Buxoro viloyatida - 168,2 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Xorazm (138,2 %), Sirdaryo (126,3 %), Namangan (124,1 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (121,4 %) qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlari




Eng past o'sish sur'atlari Qoraqalpog'iston Respublikasida - 87,8 % qayd etildi.

2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining o'sish sur'ati 5,3 % ga o'sdi, hajmi esa 120,7 mlrd. so'mga oshdi va 741,4 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi 82,5 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 17,5 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



Yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha eng katta hajm Toshkent shahrida 312,8 mlrd. so'm qayd etildi, 2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 52,4 mlrd. so'mga o'sish kuzatildi.

Eng kichik hajm esa Sirdaryo viloyatida kuzatildi - 8,7 mlrd. so'm.



2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasiga muvofiq ijtimoiy himoya qilish va fuqarolar sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

2019-yil yanvar-fevral oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 373,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Sirdaryo viloyatida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi eng kichik (1,4 %) bo'lishiga qaramasdan, ularning o'sishi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,3 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati



**2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>26102,2</b>	<b>115,7</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	792,0	117,1
viloyatlar:		
Andijon	1350,0	110,9
Buxoro	1117,1	111,8
Jizzax	543,6	115,9
Qashqadaryo	1186,9	108,3
Navoiy	650,7	111,4
Namangan	1055,8	112,6
Samarqand	1693,7	107,8
Surxondaryo	965,3	114,2
Sirdaryo	351,6	118,8
Toshkent	1915,9	111,6
Farg'ona	1585,9	111,0
Xorazm	769,5	111,8
Toshkent shahri	8337,5	115,0

Mamlakatimizda hududlar moliyaviy salohiyatini yuksaltirish va unda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

2019-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (8337,5 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 115,0 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga eng yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (118,8 %), Jizzax (115,9 %), Surxondaryo (114,2 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (117,1 %) qayd etildi.


### 2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Samarqand (107,8 %), Qashqadaryo (108,3 %) va Andijon (110,9 %) viloyatlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan milliy va mahalliy manfaatlardan kelib chiqqan holda oqilona foydalanishga bog'liq.

**2019-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %**



Hududlar bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida eng yuqori ulushlarni Toshkent shahri (31,9 %), Toshkent (7,3 %), Samarqand (6,5 %), Farg'ona (6,1 %) va Andijon (5,2 %) viloyatlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kichik ulushlar Sirdaryo (1,4 %), Jizzax (2,1 %), Navoiy (2,5 %), Xorazm (3,0 %) viloyatlariga va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,0 %) to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 792,0 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 113,7 % ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Toshkent shahrida 3351,4 ming so'mdan Qashqadaryo viloyatida 373,1 ming so'mgacha oraligni tashkil etadi.

### 2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, ming so'm



Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Qoraqalpog'iston Respublikasida (15,5 %), Jizzax (13,7 %), Surxondaryo (11,8 %), Namangan (10,5 %), Toshkent (10,3 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (13,0 %) kuzatildi.

### 2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Samarqand (105,7 %) va Qashqadaryo (106,2 %) viloyatlarida kuzatildi.

Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy tarkibiy qayta qurilishini muvaffaqiyatli yakunlash uchun zaruriy sharoitdir.

**Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi**

**71-230-80-59**

**71-230-80-60**